



The issues of interference and transposition in using CBI and STEM technologies in a competency-based English language teaching approach

Feruz MASHARIPOVA¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

interference,
transposition,
English language teaching,
competency approach,
CBI and STEM technologies.

ABSTRACT

This article analyzes the phenomenon of interference (negative) and transposition (positive) that occurs as a result of differences between the Uzbek and English languages in the process of learning English as a foreign language. Methodical recommendations on foreign language teaching based on CBI/STEM technologies are presented to prevent difficulties that form the types of cognitive, linguistic and social interference in the process of developing students' English language competences.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp64-74>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tilini kompetentiv yondashuv asosida o'qitishda CBI va STEM texnologiyalarini qo'llashda interferensiya va transpozitsiya xodisalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tillararo interferensiya,
transpozitsiya,
ingliz tili o'qitish,
kompetensiyaviy
yondashuv,
CBI va STEM texnologiyalar.

Mazkur maqolada chet (ingliz) til o'rganish jarayonida o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tafovutlar natijasida yuzaga keladigan interferensiya (salbiy) va transpozitsiya (ijobiy) hodisasi tahlil qilinadi. Talabalarning ingliz tilida til kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan kognitiv, lingvistik va ijtimoiy sohaga oid interferensiya turlarini tashkil qiluvchi qiyinchiliklar oldini olishda CBI/STEM texnologiyalari asosida chet til o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar taqdim qilinadi.

¹ Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Urgench State University
E-mail: masharipova07@gmail.com

Вопросы интерференции и транспозиции при использовании технологий CBI и STEM в компетентностно-ориентированном подходе к обучению английского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интерференция,
транспозиция,
преподавание
английского языка,
компетентностный
подход,
технологии CBI и STEM.

В данной статье анализируется явление интерференции (негативной) и транспозиции (позитивной), возникающее в результате различий между узбекским и английским языками в процессе изучения английского языка как иностранного. Представлены методические рекомендации по преподаванию иностранных языков на основе технологий CBI/STEM с целью предотвращения трудностей, формирующих типы когнитивной, языковой и социальной интерференции в процессе формирования у студентов англоязычных компетенций.

KIRISH

Til vositalarini egallash mushohada va idrokdan boshlanib, tafakkur tomon, so'ngra amaliyotga yo'naltirilgan bilish jarayoni ekanligi ruhshunoslikda aniqlangan. Fikr yuritish chog'ida taqqoslash, tillararo va til ichki munosabatlarini aniqlash, shuningdek, til hodisasining obyektiv borliqqa bog'lanishini ochish kabilar tafakkur zimmasida turadi. Tafakkurning mavjud ilk shakllaridan birlamchisi – amaliyot. Shunga ko'ra, tilga oid bilimlarni o'zlashtirish tilni o'rganishga qo'yiladigan dastlabki qadamdir, asosiy masala nutq amaliyotini egallashga borib taqaladi. Til materiali intuitiv tarzda, ong ishtirokisiz, avtomatlashgan darajada nutqda qo'llana oladigan bo'lgandagina, tilni his etishga erishiladi, ya'ni nutq malakalari hosil bo'ladi [1; 27-28].

O'qish va bilim olishning takomillashuv jarayonlari haqida fikr yuritar ekanmiz, o'qish kompetensiyasining psixolingvistik va interaktiv modellari, shu jumladan, pastdan yuqoriga (Bottom-up) va yuqoridan pastga (Top-down) o'qish strategiyalari mavjudligini ta'kidlash o'rinli. Kontentga asoslangan ta'limda o'qish har qanday darajadagi til o'rganuvchilar uchun juda muhim til va kasbiy ko'nikma sifatida e'tirof etiladi. Talaba qanchalik ko'p o'qisa, shunchalik ko'p dunyoviy bilimlarga ega bo'ladi. O'z ona tilisida va chet tilida ravon o'qish esa o'qishning bir qator boshqa jihatlarini, jumladan, so'zlarning kontekstual ma'nosini to'g'ri tushinish, lug'at bilan ishlash, jummalarni qayta ishlash va talabaning o'qishga va bilim olishga motivatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Ravon o'qish malakasini puxta egallagan talabalarda o'qish kompetensiyasi takomillashuvi talaba avtonomiyasining shakllanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'qish strategiyasi va talabaning avtonomiyasi ikkita alohida masala bo'lib, ularni bir-biriga bog'lab turuvchi, o'qish jarayonida sodir bo'ladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalari metodik tadqiqotlarda deyarli kam o'rganilgan muammoli mavzudir. Ko'pchilik ta'limshunoslar, jumladan, MakKarti [2], S.Krashen [3], J.Liymann [3], P.Laytboun [5], R.Layster [6], A.Outa [7], M.E.B.Espinoza [8], K.L.Loundri [9], M.Chelsi-

Marsiya [10], R.R.Bemford [11] o'z ilmiy ishlarida bu jarayonni affektiv filtr va skimata nazariyalari bilan bog'liq holda tushuntirishga harakat qilgan.

S.Krashen "Affektiv filtr" nazariyasini taklif qilar ekan, salbiy hissiy holatlar hamda talaba xotirasida oldindan mavjud bo'lgan ma'lumotlar uning chet til ma'lumotlaridan foydalanish ko'nikmalarining takomillashuviga xalaqit berishi mumkinligini aytgan [5; 5]. Shu o'rinda, talabaning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda uning tanqidiy fikrlashi natijasida yuzaga keladigan affektiv filtr biz muhokama qilayotgan interferensiya va transpozitsiyani yuzaga keltiruvchi omildir. Affektiv filtr bu talabaning mavjud bilimlari va dunyoqarashining chet tildagi matn orqali taqdim qilinayotgan ma'lumotni o'zlashtirishga nisbatan sodir bo'ladigan talaba ichki sezgisi, his-tuyg'ulari va dastlabki bilimlari hosilasi sifatida namoyon bo'ladigan munosabatidir. Kuchli affektiv filtr natijasida chet tilida taqdim qilinayotgan ma'lumot talaba tomonidan qabul qilinmasligiga va bu o'z navbatida interferensiya va transpozitsiya jarayonining to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Biolog talaba misolida oladigan bo'lsak, uning chet tili savodxonligi rivojlanishsiz qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Taniqli o'zbek ta'limshunos olimi J.Jalolov ta'rifiga ko'ra, interferensiya [lot. inter orasida, ichida + ferens(ferentis) ko'chiruvchi, o'tkazuvchi] – salbiy ta'sir, noma'lum ko'chish, to'sqinlik qilish, fob bo'lish (bilim, ko'nikma, malakaning salbiy natijaga olib borishi); til ichki va tillararo leksik / grammatik / fonetik / orfografik lisoniy metodika (xususiy metodikalarning chalkashib ketishi) sifatida ko'riladi.

Salbiy ta'sir (interferensiya) o'z manbayiga ko'ra tillararo (ona tili, ikkinchi til, chet tilda) va ichki (chet tilning o'zida) namoyon bo'lishi mumkin. Interferensiya holati leksika, grammatika va talaffuzda uchraydi, nutq jarayonini tushunishga halaqit beradi, hatto so'zlovchilarni bir-birini tushuna olmaydigan holatga tushirib qo'yadi. Interferensiya oqibatida qiyinchilik paydo bo'lishi, xatolar kelib chiqishi tabiiydir [1].

Mazkur maqolada interferensiya jarayonini affektiv filtr faoliyati natijasi sifatida, skimatani transpozitsiya hodisasi hosilasi sifatida izohlashni o'rinli deb hisoblaymiz. Xususan, chet tilni o'zlashtirishdagi "affektiv filtr"ga oid nazariy qarashlar til o'rganuvchining chet tilini o'zlashtirish faoliyati sifatini hissiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda tushuntirishga harakat qiladi. Affektiv filtr ko'rinmas psixologik filtr bo'lib, u chet tilda ma'lumotni ifodalashni osonlashtirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin [11; 101-103].

O'qish jarayonida talaba ongida bu filtrning analiz va sintez tahlili yuqori bo'lishi natijasida talaba stressni boshdan kechirishi, tashvishlanishi va o'ziga nima bo'layotganini anglash bilan o'y-xayoli band bo'lishi, o'ziga ishonchsizligi, bu hissiy holat esa chet tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatiga to'sqinlik qilishi, shu sabab o'qish jarayonida talaba yolg'iz ishtirok etishni istamasligi va hamkorlik qilish imkoniyatlarini izlashi, agar o'qishga asoslangan mashg'ulotlarga o'zgartirishlar kiritilmasa, talabada zerikish va qiziqishning pasayishi yoki umuman yo'qolishi kabi salbiy holatlar paydo bo'lishi aniq. Bu haqida tadqiqot ishining uchinchi bobida ushbu interferensiya va transpozitsiya hodisalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonidagi tahlil natijalari taqdim qilinadi.

Aksincha, affektiv filtr sust bo'lgan sharoitda, talaba tilni o'zlashtirishda tavakkal qilishdan qo'rqmaydi, o'qituvchining ko'magisiz qaror qabul qilish va o'qish jarayonida xato qilishda o'zini xavfsiz his qiladi, o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish va til modellarini izlash imkoniyatini his qiladi, savollarga javob berishda va o'z fikrlarini tengdoshlari va o'qituvchi bilan baham ko'rishda o'zini xavfsiz his qilishiga sharoit yaratadi.

Demak, har bir chet til professor-o'qituvchisi professional kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishi, talabaning o'qish kompetensiyasini takomillashtirish uchun talaba ongida kechadigan affektiv filtrning sust darajasiga erishishga harakat qilishi va bunda o'zaro hamkorlik va ishonch hissining ahamiyati katta ekanligini anglashi lozim bo'ladi.

Ko'nikmaning ijobiy va salbiy ko'chishi haqida ruhshunoslikda boy ma'lumot berilgan. Til tajribasi yangi o'zlashtirilayotgan hodisaga to'sqinlik qilishi yoki uni osonlashtirishga yo'llashi mumkin. Nutq malakalarining ijobiy (transpozitsiya) yoki salbiy (interferensiya) ko'chishi haqidagi ma'lumotlar mashqlar sistemasini tuzishda hisobga olinishi shart bo'lib, o'quv jarayonida ular haqida talabalarga bayonot berilmaydi. Til birligining oson yoki qiyinligi unga oz yoki ko'p kuch va vaqt sarflanishi bilan belgilanadi [1]. Professor M.Djusupov nazariyasiga ko'ra, nutq interferensiyasi o'rganilayotgan til me'yorlarining buzilishi, ya'ni normadan og'ishidir [13], lekin translingvo yozuvchining adabiy asaridagi og'ishlardan farqli o'laroq, nutq interferensiyasi birinchi navbatda tilni yaxshi bilmaslik yoki kam bilish natijasidir. Bu interferensiya bilingvistik til o'rganishda, ya'ni u avtonom (mukammal) bilingvizmda emas, balki tobe (bo'ysunuvchi) bilingvizmda namoyon bo'ladi.

Tilning dinamikasi statik holatda til birliklarini tahlil qilishda hisobga olinmaydigan xususiyatlarni ham ochib beradi. Tilning dinamikasi til birliklari va ularning birikmalarining ham paradigmatic, ham syntagmatic (birinchi navbatda) munosabatlarini hosil qiladi [13].

Chet tilni o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan interferensiya haqida fikr bildirib, taniqli lingvist va ta'limshunos olim, professor U.Yusupov interferensiyani til ichidagi va tillararo interferensiyaga ajratgan holda, tillararo interferensiyaga shunday ta'rif beradi: "Tillararo interferensiya – bu ona tilining ta'sirida chet til me'yorlarining buzilishi yoki nutqda savodsizlik va to'siqlarning paydo bo'lishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, bu kontekstda nutq savodsizligi va to'siqlar nafaqat tillararo interferensiya ta'sirida, balki materiallarni yetarli darajada bilmasli va boshqa faktorlar ta'sirida ham sodir bo'lishi mumkin". Olim interferensiya va transpozitsiyaga oid tadqiqotlarni chog'ishtirma tilshunoslikning lingvodidaktik vazifalari qatorida sanab o'tadi. Lekin transpozitsiya atamasi o'rnida "facilitation" so'zini qo'llagan. Bu atama ushbu hodisaning mohiyatiga mos keladi, chunki ona tilidagi mavjud me'yorlar bu jarayonda chet til bilan mos keladigan va til o'rganuvchi talaba uchun qaysidir ma'noda yengillik yaratadigan holatlar mavjudligi haqiqatdir. Bunda tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash, tilshunoslik nuqtayi nazaridan interferensiya va fasilitatsiya hodisalari mohiyatini ochishga xizmat qiladi [14; 3-7].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Biz jahon ta'limshunosligining CBI/STEM yo'nalishida amalga oshirilgan mavjud ilmiy tadqiqotlar nazariyalarini inobatga olgan holda, til ichidagi va tillararo munosabatda talaba ongi va til o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan interferensiya holatining uchta asosiy turi mavjudligini aniqladik:

1. kognitiv interferensiya.
2. lingvistik interferensiya.
3. ijtimoiy kontentga oid interferensiya.

Kognitiv interferensiya til ichida, ya'ni talaba ongida sodir bo'ladigan interferensiya bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi affektiv filtrni pasaytirishni modellashtirishi, ya'ni xatolarni

tuzatishga ortiqcha urg'u bermaslikka harakat qilish, ularni tuzatish o'rniga, boshqa takrorlamasligini qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyada tildan to'g'ri foydalanish, ko'rsatma va yo'riqnomaga asosan bilimlarni mustahkamlashga e'tibor qaratish, guruhda chet tildagi xatolar uchun talaba uyaladigan va noqulay ahvolga soluvchi vaziyatlarni ta'qiqlovchi siyosatni o'rnatish, har bir dars davomida yuzaga keladigan ijtimoiy ta'lim maqsadlarini bevosita qo'llab-quvvatlashni taqozo qiladi.

Ma'lumki, talaba ma'lumotning asosiy mazmunini xotirada saqlab qolishni va uni keyinchalik ehtiyoj bo'lganda qayta aktivlashtirishni muhim deb hisoblaydi. Chet tildagi matnni o'qish orqali olingan dastlabki bilimlar talaba xotirasida ona tilida va chet tilda aks etadi va saqlanadi. Lekin vaqt o'tishi bilan ma'lumotga qaysi tilda murojaat bo'lsa, uning transpozitsiyasi mustahkam bo'ladi. O'zlashtirilgan ma'lumot ko'rgazmali tasvirlar yoki amaliy bajarilgan ishlar orqali xotirada doimiy qoladi va har safar shu obyekt haqida gap borganda talaba uni tasavvurida qayta tiklaydi. O'qish jarayonida talaba ongida kechadigan kognitiv interferensiya quyidagi vaziyatlarda kuzatilishi mumkin:

- matnni o'qishdan ko'zlangan maqsadni to'g'ri anglamasligi;
- asosiy e'tibor tarjimaga qaratilib, ma'lumotni o'zlashtirish maqsadidan uzoqlashish;
- talabaning o'qish kompetensiyasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan autentik manbalardan olingan matn talaba bilim darajasiga mos emasligi;
- talabada o'qishga intrinzik va ekstrinzik motivatsiyaning sustligi.

Bu esa talabalar hamkorligining muhimligini yana bir bor isbot qiladi. O'qish faoliyati yakunlangandan keyin talabalar o'zaro fikr almashayotganda, o'qituvchi o'z kuzatishlari natijalarini baham ko'rishi va muammolarni hal qilish bo'yicha fikrlarni jamlashga harakat qilishi va yordam berishi, guruhda o'zaro ishonch hissining shakllanishiga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan tashkil qilingan har bir o'qish faoliyat turida talabani matn yozish, mazmunini anglash va shu orqali maqsadni aniqlashga harakat qilishga undashi va bu jarayonni rag'batlantirishi, talabalarda o'qishga va savodxon bo'lishga ishtiyoq va qiziqishni yuzaga keltiradi. Bu esa o'z navbatida kuchli savodxon guruhni yaratadi va darsni o'rganish uchun xavfsiz joyga aylantiradi. Bunda talaba kuchli model va strategiyalar bilan ta'minlanishi, individual maqsadlar qo'yish va o'sishni maqsad qilishi, fikriy to'siqlarni pasaytiradi va tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

Lingvistik interferensiya talabaning chet tilida o'qish kompetensiyasini mukammal takomillashtirishda uning ona tilidagi bilim, ko'nikma va malakalari ham yuqorida sanab o'tilgan sabablar bilan birgalikda interferensiya jarayonini yanada kuchayishi natijasida yuzaga keladi. Lingvistik interferensiya fonologik, leksik va grammatik shaklda nomoyon bo'ladi:

Fonologik interferensiya:

- talaba matndagi so'zlarning to'g'ri talaffuzi va ma'nosini bilmasligi;
- taqdim qilingan matndagi so'zlarning to'g'ri talaffuzini mashq qilish, matnni perefraya qilish, til o'rganish jarayonini boshqa til ko'nikmalari bilan integrallashuvini ta'minlaydigan, qulay elektron yoki audio variantining mavjud emasligi;
- o'qishda ma'noning nozik jihatlarini ifodalash uchun intonasiyani o'zgartira olmaslik va gap urg'usini to'g'ri qo'yimaslik; aniq, tabiiy, talaffuz va intonasiya to'g'risida yetarlicha bilimga ega emaslik chet tilidagi so'z urg'usida aniqlikning yetishmasligi ayrim holatlarda noto'g'ri talaffuzlar yuzaga keltiradi va o'qilgan matn tushunarli bo'lmaydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday interferensiyalar, M.Djusupov ta'kidlaganidek, talabalarning o'rganilayotgan tillarni bilmasligi sababli yuzaga keladi. Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tafovutlar natijasida yuzaga keladigan lingvistik interferensiya bilan bir qatorda ijtimoiy kontentga oid interferensiyalar bo'yicha keyingi tadqiqotlarni o'tkazishni tavsiya qiladi. Tillar bashariyat tarixida odamlar tomonidan muloqot qilish va munosabatlar o'rnatishga xizmat qilgan. Ushbu munosabatlar hozirgi kunda STEM sohasidagi hamkorlik sifatida nomoyon bo'lmoqda. Xalqaro va biznes aloqalar rivojlanib borgan sari til o'rganish jarayonida leksik va grammatik xatolar paydo bo'laveradi. Ona til va chet tili o'rtasidagi farq interferensiyaga olib keladi.

O.Yusupovning yana bir diqqatga molik nazariyasi talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda inobatga olinishi lozim. Olim tildagi lakuna unlilar haqida fikr bildirib, aynan shu unli tovushlar o'qish sifati va ravonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, ingliz tilidagi lakuna unlilar sifatida [æ, ə, u:, a:, ei, ai, ɔi, au, ou, iə, ɛə, uə] sanab o'tadi [14; 13].

Xususan, biolog talabalarning chet tilida o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda ushbu lakuna unlilarini dekodeing yondashuvi asosida qiyoslab o'rgatish va talaffuz sifatiga e'tibor qaratgan holda zarur ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi, ovoz chiqarib o'qish va tez o'qish mashqlarini doimiy qo'llashni taqozo qiladi.

Leksik interferensiya haqidagi fikrlar dastavval tarjimashunoslik tadqiqotlarda qayd etilgan. Xususan, Havlaskova (2010) interferensiyani tarjimonlarning ba'zi manba matnlarini manba aspektlari ta'sirida tarjima tili matnlariga o'tkazganda, so'z, ibora, idioma, metafora yoki butun sintaktik tuzilma darajasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa sifatida ta'riflagan [15]. Ta'limshunoslikda bu atama boshqalar tomonidan ona tilining chet tilni o'rganishga ta'siri va sodir bo'ladigan o'zgarishlar sifatida ko'riladi. O'qish jarayonida leksik interferensiya natijasida yuzaga keladigan xatolarni matn tarjimasida aniqlash mumkin. Ular quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- matnni o'qish oldidan taqdim qilingan lug'at va topshiriqlarning to'liq o'zlashtirilmaganligi;
- notanish lug'at tarkibining son jihatdan ko'pligi sabab tarjima ko'nikmasiga ehtiyojning ortib borishi;
- talaba mavzuga oid izohli glossariyga muhtojlik sezishi;
- o'qigan matn mazmunini lug'at yetishmasligi sabab tushinishga qiynaladi, yetarli til diapazoniga ega emas.

O.Yusupovning yana bir e'tiborga molik nuqtayi nazari (boshqa adabiyotlarda biz buni deyarli uchratmadik) leksikografik interferensiya bo'lib, bu turdagi salbiy ta'sirni ingliz tilida revers va morfemalar lug'atlarining, o'zbek tilida esa tezaurus lug'atlarining mavjud emasligi bilan izohlaydi [14].

Biolog talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda ixtisoslik sohasiga oid atamalar, maxsus so'z birikmalari va iboralarni illyustratsiyali izohi matn mazmuni haqida to'liq tasavvur hosil qilishida tezaurus lug'atlar juda muhim sanaladi. Demak, biolog talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda ushbu leksikografik interferensiyani kamaytiruvchi strategiyalar sifatida, ingliz tilining o'zida mavjud tezauruslardan foydalanish ko'nikmalarini Oxford Learners' Thesaurus, Merriam – Webster Thesaurus kabi onlayn tezaurusli veb sahifalardan foydalanishni o'rgatuvchi topshiriqlar tizimi taqdim qilinishi kerak bo'ladi. Buning natijasida til o'rganishga

tarjimaning ta'siri kamayadi, chunki talaba so'zning izohini chet tilida o'rganadi va keyinchalik olingan ma'lumotga yana chet tilida murojaat bo'lishi, chet tili bilimlarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Grammatik interferensiya ikkala tilning qoidalari va tuzilmalari darajasida sodir bo'ladi. Bunda ingliz tilidagi matn sarlavhasidan tortib, jumlar va paragraflar tartibi talabalarining ona tilidagi konstruktiv grammatik tuzilishga mos kelmasligi natijasida sodir bo'ladi. Talabalar o'zbek va ingliz tillari grammatik tizimlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olmaydilar, jumlarni alohida so'zlarga ajratib, ularni bir butun sistema sifatida emas, balki alohida leksik-grammatik birlik deb qabul qiladilar. Bundan tashqari, ular ona tilining grammatik tuzilishini chet tilga o'tkazadilar. Aksariyat holatda grammatik interferensiya quyidagi ko'rinishda nomoyon bo'ladi:

- o'qish jarayonida ona til grammatikasining kuchli nazorati chet til grammatik strukturasini to'g'ri qabul qilishiga to'sqinlik qiladi;

- vaqti-vaqti bilan tizimli bo'lmagan xatolar va jumlar tuzilishidagi kichik kamchiliklar sodir bo'ladi;

- chet tildagi grammatik forma yasallishining ona tilidan tubdan farq qilishi natijasida kelib chiqadigan tushunmovchiliklar. Masalan, ingliz tilida aktiv va majhul nisbat konstruksiyalarining to'be yordamchi fe'li bilan yasallishi va barcha zamon formalarida, jumladan, Present Simple Passive, Present continuous Passive, Future simple Passive va Future continuous Passive zamon formalarida o'tgan zamon sifatdoshining qo'llanilishi, qolaversa, ingliz tilidagi majhul nisbatda ish harakatning bajaruvchisining gapda berilishi uning ish-harakat bajarilishidagi muhimlik darajasiga qarab belgilanishi kabi holatlar o'zbek talabada chet til grammatik strukturasini o'zlashtirishida chalkashliklar keltirib chiqaradi;

- matn hajmining kattaligi sabab talabaning o'zlashtirishga ishonchining yo'qolishi;

- ingliz tilida ega va kesim, ot va sifat o'rtasidagi kelishik, fe'llarning son formallari (birlik yoki ko'plik), rod kategoriyasi (erkak yoki ayol) va shaxs (birinchi, ikkinchi yoki uchinchi) subyektlari bilan mos kelmasligi o'qish jarayonida interferensiyani yuzaga keladi. Shu sababli, talabalar matnni o'qib mazmunini tushinishda chalkash bir nechta xatolar qiladi;

- ingliz tilidagi matnda tartib, paragraf va tinish belgilari (masalan qo'shtirnoq) izchil va tushunarli, imlo qoidalari to'g'ri, aniq, tushunarli, uzluksiz yaratilgan, lekin ona tilining ta'siri jumlar mazmunini tushunishga salbiy ta'sir qiladi.

Shuningdek, bu borada o'zbek chog'ishtirma tilshunosligida salmoqli ishlar qilingan, masalan, O.Yusupov grammatik interferensiya turlari sifatida faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar (scales, tongs) son kategoriyasining o'zbek tilida yo'qligi va faqat birlikda ishlatiladigan otlar (one fish – ten fish, one sheep – two sheep, one deer – five deer) ingliz tilida ko'plik shaklining yo'qligi, lekin o'zbek tilida bu so'zlarning ko'plik shaklining mavjudligi (information – ma'lumot (ma'lumotlar), advice – maslahat (maslahatlar), business – ish (ishlar), kelishik kategoriyasidagi o'xshashlik va farqlar, ingliz tilida ayrim fe'llar (feel, smell, believe, dislike, distrust) ning davomli zamon aspektining yo'qligi o'zbek tilida esa mavjudligi, ingliz va o'zbek tillaridagi buyruq mayli ifodasidagi farqlar, predloglar va postloglar farqi (preposition/postposition), modallik kategoriyasining turlicha ifodasi, so'roq gaplarda gap bo'laklarining tartibi va ayrim o'zbek tilida yo'q so'zlarning inglizcha formada paydo bo'lishi (did, have, he/she/it), gapda ega va kesim moslashuvdagi tillararo farqlar, ingliz tilidagi gap remasining o'zbek tilidagi ifodasiga mos

kelmasligi, ingliz tilidagi hayvon va qushlar ovozi va harakatini ifodalovchi vokativ kategorianing ifodalanishi, bir bosh bo'lakli gaplar tuzilishidagi farqlarni sanab o'tadi [14].

Ijtimoiy kontentga oid interferensiya kontent bilim va uni takomillashtirish uchun ijtimoiy muhit, zarur manba, pedagogik-kadr, texnologiya va jihozlarlar yetishmasligining nafaqat chet tilda o'qish orqali bilim olish, balki butun ta'lim jarayoniga salbiy ta'siridir.

- Talaba chet tilida o'qib o'zlashtirgan matn mazmunini yoki olgan bilimlarini ixtisoslik fanining ona tilida o'qitilishi yoki soha o'qituvchisining chet tilni bilmasligi sabab yana ona tilida tushuntirishiga to'g'ri keladi, chunki talaba chet tildan foydalanadigan ijtimoiy muhit mavjud emas.

- Sohaga oid matndagi nazariy ma'lumotning amaliy o'zlashtirilishi uchun mustaqil ta'lim jarayonining tizimli, takomillashib boruvchi, o'qishga asoslangan topshiriqlar nazorati uchun me'yoriy vaqt va baholash mezonlari mavjud emasligi natijasida talaba faqat haftada bir marta bo'ladigan auditoriyadagi dars mashg'ulotlarini bajarish bilan cheklanishi, mustahkamlash va o'z-o'zini rivojlantiruvchi mashqlarining bajarilmasligi uning til o'rganish faoliyati sustlashadi.

- Matn mazmunini aks ettiruvchi sohaga oid rasm, illustratsiya, grafik organayzer, diagramma, subtitrlar video tasvirlar bilan ta'minlanmaganligi sabab matn ma'lumoti noto'g'ri o'zlashtiriladi.

- Talabada ixtisoslik fan bilimlari yetishmasligi sabab o'qish jarayonida berilgan ko'p bo'limli, murakkab instruksiyalar, shartlar va ekspertiza yo'riqnomalariga oid tafsilotlarni tushunishga qiynaladi va bo'limlarni qayta-qayta o'qishiga to'g'ri keladi. Chet tilini o'qitishning CBI/STEM texnologiyalari ushbu interferensiya turlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tilning ichki hodisalari orasidagi interferensiyaning bartaraf qilish uchun, aloqaga kirayotgan tillardagi mushtaraklik va tafovutlarni tushunishda qiyoslash (kontrastiv) tahlil natijalari komparativ (til ichki qiyoslanishi) tahlil bilan boyitilishi lozim. Ikkala (kontrastiv va komparativ) qiyoslash statik (holatdagi) qiyinchiliklar tipologiyasini, boshqacha qilib aytganda, lingvistik tipologiyani yaratadi [1;36].

Ma'lumki, har bir chet tili o'qituvchisi talabaning bilimi mahsuli sifatida chet tilida o'qish yoki yozish topshiriqlarini bajarish, qolaversa, chet til ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun dars mashg'ulotlarini ona tilidagi bilimlarga tayangan holda tashkil qiladi. Demak, chet tili matnida taqdim qilinayotgan matn ma'lumotiga interferensiya ta'sirini kamaytirish va transpozitsiya holatida chet tili bilimlarining mustahkam o'rin egallashini ta'minlash uchun transpozitsiya jarayonining batafsil tatbiqi zarur. Shu o'rinda, o'zbek ta'limshunosligida transpozitsiyaga berilgan ta'rifni keltirish maqsadga muvofiq.

J.Jalolov ta'rifiga ko'ra, transpozitsiya [lot. transpositio boshqa joyga ko'chirish] – ijobiy ta'sir, ijobiy ko'chish, yordamga kelish, ko'maklashish (ijobiy natijaga olib boruvchi bilim, ko'nikma, malakaning ko'chishi) sifatida qabul qilingan.

Skimataga oid nazariyalarda taqdim qilingan transpozitsiya jarayonining quyidagi uch turini chet tilida talabaning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda inobatga olish va muhokama qilish o'rinli deb hisobladik.

Birinchi turdagi transpozitsiya akkresiya (accretion) bo'lib, bu talabaning dastlabki sohaga oid mavjud ma'lumotlar bazasining boshqa tilda o'sishi va ko'payish jarayoni sifatida qabul qilinadi [16;97]. Akkresiyani talabaning chet tilidagi o'qish kompetensiyasini takomillashtirish doirasida talaba xotirasida avvaldan mavjud bo'lgan

bilimlarni boshqa tilda qayta aks ettirish, mustahkamlash va rivojlantirish jarayoniga ijobiy ta'siri deb ta'riflashimiz mumkin. Quyida ushbu nazariyani atmosfera haqidagi qisqa paragraf va undagi ma'lumotlarni ingliz tilida o'qish va mazmunini tushinish jarayoni misolida taqdim qilinmoqda:

Talaba ongida avvaldan ona tilida mavjud bo'lgan quyidagi ma'lumot: Atmosfera yuqori qatlamlarining zichligi qutb regionlarida ekvatorial regionlardagiga qaraganda kichik. Atmosfera asosan azot (78,09%), kislorod (20,45%) va argon (0,93%) gazlar aralashmasidan iborat, qolgan qismini karbonat angidrid gazi, vodorod hamda geliy, neon, kripton va ksenon kabi inert gazlar tashkil qiladi. Atmosferada juda oz miqdorda metan, azot, oksid, uglerod (II)oksid va b. tabiiy hamda sanoat gazlari bo'lib, miqdori o'zgarib turadi).

Talabaga ingliz tilida ushbu matn quyidagicha taqdim qilinadi:

The density of the upper atmosphere is smaller in the polar regions than in the equatorial regions. The atmosphere consists mainly of a mixture of nitrogen (78.09%), oxygen (20.45%) and argon (0.93%) gases, the rest being inert gases such as carbon dioxide, hydrogen and helium, neon, krypton and xenon. Natural and industrial gases such as methane, nitrogen, oxide, carbon monoxide, and others are discharged in trace amounts into the atmosphere, the amount of which varies.

Ko'rib turganimizdek, birinchi kurs biolog talaba, unga taqdim qilingan ushbu ingliz tilidagi sohaga oid matndagi jami 75 so'zdan 31 so'zni (tagi chizilgan) o'z ona tilida sohaga oid bilimlariga tayangan holda yoki chet tilidagi dastlabki bilimlari orqali qiyinchiliksiz o'zlashtirishi mumkin, faqat talaffuz qoidalarini o'rganishi yoki qayta yodga solishi kerak bo'ladi. Shuningdek, matnda alohida qora harflar bilan ajratib ko'rsatilgan density, consists mainly, mixture, amount of, discharged in, trace, amounts into, to vary so'zlarini kontekstdan anglash, o'qituvchi yoki lug'at yordamida tushinib olishi ham mumkin. Ushbu transpozitsiya turida, talaba matnni hech qanday interferensiyasiz tushunadi. Mavjud bilimlarini chet tilida o'z xotirasida qayta tiklaydi. Talaba matnni qayta o'qishi, matn yuzasidan berilgan savollarga javob berishi ma'lumotni xotirasida mustahkamlash va aktivlashtirishi orqali o'qish kompetensiyasi takomillashtiradi. CBI/STEM texnologiyasiga asosan matn yuzasidan beriladigan savollar nafaqat matndagi yangi so'zlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi balki, evristik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollardan iborat bo'lishi lozim, masalan:

1. What will be the consequences (advantages vs disadvantages) of the upper-atmosphere on the earth, environment, plants, animals, and humans in Uzbekistan?

2. What will be the best oxygen production method to achieve normal atmosphere level in the Aral Sea basin?

3. Is this idea realizable or possible in the Aral Sea basin?

Umuman olganda, bu turdagi transpozitsiya natijasida talaba xotirasida ma'lumotning chet tilidagi nusxasi yaratiladi va mustahkamlanadi. Natijada talabaning mavjud bilimlari xorijiy tilda takomillashib yanada o'sadi, kommunikativ va lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi. Akkresiya transpozitsiyasi mavjud bo'lgan til o'rganish jarayonida talabaning sohaga oid bilimlari chet tilida intensiv va ekstensiv (sohaga oid qo'shimcha adabiyotlar) o'qish faoliyatining takomillashuvi, uning kelgusidagi professional faoliyatida ingliz tili bilimlarining faollashuvining samarali kechishiga zamin bo'ladi. Tadqiqot ishining uchinchi bobida ushbu interferensiya va

transpozitsiya hodisalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonidagi tahlil natijalari taqdim qilinadi.

Ikkinchi turdagi transpozitsiya jarayoni sozlash (tuning) asosida sodir bo'ladi [17]. Bunda talabaning sohaga oid bilimlari, chet tilidagi matn yordamida yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi va turli vositalar orqali aniqlashtiriladi. Masalan, yuqoridagi atmosfera haqidagi matn mazmuni tayanch bilimlar asosida tushunib olinishi mumkin. Lekin atmosferaning tog'lar yoki qoyalar yuzasiga ta'siri, uning Yer planetasini meteorlar ta'siridan saqlovchi qalqon vazifasi, shamol eroziyasi, ko'l, daryo va okean sathida havoning suyuq holda bo'lish qonuniyatlaridan chet tilidagi matnni o'qish orqali boxabar bo'lishi, transpozitsiyaning ushbu turiga misol bo'ladi.

Bunda chet tilidagi autentik ma'lumotlar yangilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ona tili interferensiyaning affektiv filtr ta'siri kam, ammo sohaga oid yangi ma'lumotni chet tilida o'zlashtirish talaba uchun mushkul vazifa bo'lib qoladi.

Demak, ushbu transpozitsiya turida talabaning chet tilidagi matnni o'qish orqali olgan ma'lumotlari talabaning soha bilimlari qatlamidagi bo'shliqni to'ldiradi. Bu jarayonda talaba katta miqdorda so'z o'rganish uchun hamkorlikka va turli lug'aviy manbalarga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. CBI/STEM texnologiyasining mavzuga asoslangan modeliga ko'ra o'qituvchi bu jarayonni havoza sifatida so'zlarni esda saqlab qolishga qaratilgan topshiriqlar va faoliyat turlarini taqdim qilish, matnni qismlarga ajratib guruhlarda ishlash va keyinchalik ma'lumotlarni umumlashtirishib umumiy xulosalar hosil qilishga qaratilgan, instruksiyaga asoslangan topshiriqlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi turdagi transpozitsiya bu modellashtirish va induksiya jarayonini o'z ichiga olgan yangi bilim yaratishdir. Bu jarayonda talabaga matn orqali mutlaqo yangi ma'lumot chet tilida tanishtiriladi. Bunda ingliz tili grammatikasi yoki tilning ayrim nutq birliklari analogiya sifatida qabul qilinadi va matn mazmunini anglash jarayonida tushuntirilib talabalar struktura to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilguncha qoidaga qayta murojaat qilib boriladi. Ushbu transpozitsiya jarayoni, matndagi lug'at misolida tahlil qilinganda, matn orqali taqdim qilinayotgan sohaga oid so'zlar, sohada yoki o'qish jarayonida doimiy ko'p qo'llaniladigan birikmalar tayyor variantda havola qilinadi va odatda bunday lug'at tarkibi talaba ehtiyojiga mos bo'lganligi uchun tez o'zlashtiriladi va o'qishning keyingi bosqichlarida tayanch vazifani bajarib beradi. Demak, ona tildagi so'z, so'z birikmalari va grammatik konstruksiyaning chet tilidagi tayyor modeli yaratiladi.

XULOSA

Shu sababli, O.Yusupov ta'kidlaganidek, o'zbek tilidagi mavjud ikki tilli lug'atlar til o'rganuvchilar uchun qulay, lekin kamchiliklari sifatida so'zlarning grammatik formalari, o'timli-o'timsizlik kategoriyasi, so'zlarning ko'chma ma'nolari, uslubiy jihatlari, sinonim va antonim variantari, giperonimlari, so'zlarning frazeologik birikmalar va maqollarda qo'llanilishi, qolaversa, etimologik aspektlarini ham aks ettiruvchi tezauruslar yaratilishiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B.27-28.
2. McCarthy M. Discourse Analysis for Language Teachers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991

3. Krashen S. The Input Hypothesis: Issues and Implications. – New York: Longman, 1985.
4. Leeman J. Towards a new classification of input: An empirical study of the effect of recasts, negative evidence, and enhanced salience on L2 development. – Unpublished doctoral dissertation, Georgetown University, Washington, DC, 2000.
5. Lightbown P. M. Input filters in second language acquisition. – 2001.; A Manuscript Version of the Chapter. In S. Foster-Cohen & A. Nizgorodcew (Eds), EuroSLA yearbook, vol. 1, 79-97. John Benjamins., Lexington, MA: D.C. Heath. – Amsterdam: Article in
EUROSLA Yearbook August
2001.file:///C:/Users/User/Downloads/LightbownEuroSLA2001.pdf
6. Lyster R. "Recasts, repetition and ambiguity in L2 classroom discourse." – Studies in Second Language Acquisition 20, 1998. – Pp.51-80.
7. Ohta A. Rethinking recasts: A learner-centered examination of corrective feedback in the Japanese classroom. In J.K. Hall & L.Verplaeste (Eds.), The construction of second and foreign language learning through classroom interaction. – 2000. – Pp.47-71. Mahwah, NJ: Erlbaum
8. María Elvira Barrios Espinosa. SCHEMA THEORY AND L2 READING INSTRUCTION. – Universidad de Málaga, <https://core.ac.uk/download/pdf/61902213.pdf>
9. Kevin Laurence Landry. Schemata In Second Language Reading. – The Reading Matrix, Vol.2, No.3, September 2002. <http://www.readingmatrix.com/articles/landry/>
10. Celce-Murcia M. (ed) (2nd edition) Teaching English as a Second or Foreign Language. – Boston: Heinle & Heinle, 1991.
11. Bamford R.R., Extensive Reading in the Second Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
12. Carrell P.L. Some Causes of Text-boundedness and Schema Interference. In P.L., Carrell, Devine, J. and Eskey, D. E., editors. Interactive Approaches to Second Language Reading. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – Pp.101-103.
13. Джусупов Н.М. Языковая девиация как особый тип выдвижения: общелингвистический и лингвостилистические аспекты // Вестник КГУ им. Ш. Уалиханова. Серия филологическая. – 2018. № 1(2).
14. Юсупов Ў. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси // Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.3-4,7
15. Havlaskova Z. Interference in students' translation. Brno, Czech Republic: Masaryk University, 2010
16. Ruberval F.M. Schema theory to the field of reading in a foreign language teaching. – UEMS, Vol. 02 N. 01, Jan 2004. – P.97.